

"KELISHILDI"
Toshkent viloyati
YaBX IK boshlig'i



E.Abdugaliyev
2022 yil

**“Toshkent viloyati, Oxangaron tumani “Go’shsay” MFY hududida “Ko’chbuloq”
oilaviy shifokorlik punktini qurish” obykti bo’yicha**

TOPSHIRIQ

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni
1.	Ob'ekt nomi	Toshkent viloyati, Oxangaron tumani "Go'shsay" MFY hududida "Ko'chbuloq" oilaviy shifokorlik punktini qurish
2.	Ob'ekt manzili	Oxangaron tumani "Go'shsay" MFY hududida
3.	Loyihalashtirish uchun asos	Oxangaron tuman hokimining 2022 yil 01 iyuldagi xati bo'yicha Toshkent viloyati hokimligining 2022 yil 14 iyuldagi K-2140-son topshirig'iga asosan
4.	Buyurtmachi	Toshkent viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi" Injenering Kompaniyasi
5.	Bosh loyihachi	Tanlov savdolari natijalariga asosan
6.	Bosh pudratchi qurilish tashkiloti	Tanlov savdolari natijalariga asosan
7.	Qurilish qilishning taxminiy muddatlari	2022 yil
8.	Loyihalashtirish bosqichi	Bir bosqichli loyihalashtirish
9.	Qurilish turi	Yangi qurilish
10.	Moliyalashtirish manbai	Ochiq byudjet mablag'lari xisobidan.
11.	Qurilish maydoni haqida ma'lumot va rejalashtirish cheklovlari. Maxsus geologik va gidrogeologik sharoitlar (qurilish maydoni xarakteristikasi)	Muhandislik-qidiruv ishlari xulosasiga binoan.
12.	Ob'ektning asosiy ko'rsatkichlari va binoning funksional maqsadiga qo'yiladigan talablar	<ul style="list-style-type: none"> - Hajmiy o'lchamlari _____m; - Bino to'g'ri to'rtburchak shaklida; - Tashqi devor g'ishtli, qalinligi 380 mm; - Tashqi devorlarning qalinligi issiqlik muhandislik hisob-kitoblari asosida olinishi kerak (KMK 02.01.042018 bo'yicha, qalinligi 380 mm bo'lgan pishiq g'isht); - Ustunlar- 400x400 mm o'lchamli tashqi va ichki quyma temirbeton, beton sinfi KL B 25. - 300 o'rinli oilaviy poliklinika loyihasi; - Binoda ikkita ichki evakuvatsiya zinaxonasi ko'zda tutilsin; - Ichki pardadevorlar ikki qavatli suvga va yong'inga chidamli gipsokartondan.
13.	Loyiha yechimlariga qo'yiladigan asosiy talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni
13.1.	Arxitektura-qurilish, rejalashtirish va konstruktiv yechimlar, blokirovka qilish shartlari, binoni pardoqlashga qo'yiladigan talablar	<p>Binoning arxitektura-me'moriy rejalashtirish qismi buyurtmachi tomondan berilgan texnik topshiriqlar, ish yuritish maqsadlariga muvofiq jihozlangan, shuningdek, insolatsiya, shamollatish tizimlari va tabiiy yoritishni hisobga olgan holda shifoxona texnologiyasini va funksiasini hisobga olgan holda qabul qilinishi kerak.</p> <p>TASHQI PARDOZLASH.</p>

	<p>Fasad.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Devor tag qismi (цоколь) keramogranit; - Devor yuzasi suvoq, rangli buyoqlash - Bino parapeti yog'och karkasli "plastik"; - Fasadni arxitekturaviy bezashda bino tashqi derazalari chetiga penopolistrolli bezaklardan foydalanishni ko'zda tutish; - Binoga kirish qismiga - ayvonli zinalar <p>Ichki pardoqlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Shift - barcha xonalarda gipsokarton hamda suvli bo'yoq bilan bo'yash, koridor - armistrong; - Devorlar - davolash xonalari, qabulxonalar; Ma'muriyat xonalari, rentgen xonalari, umumiy bo'lim xonalari, koridor yorqin rangdagi suvli bo'yoq bilan bo'yash, so'ngra akril bo'yoq bilan bo'yoqlash (poldan 1600mm.gacha); - Elektr uskunolari xonasi - yorqin rangdagi akril suvli bo'yoqlar bo'yoqlash (poldan 1600mm.gacha), - Texnik va boshqa xonalar - yorqin rangdagi akril suvli bo'yoqlar bo'yoqlash (poldan 1600mm.gacha), - Hojatxona devorlarini-shift balandligida keramik plitkalar bilan qoplash (poldan 1600mm.gacha). <p>ESHIKLAR.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Eshik romlarida quyidagilarni e'tiborga olish: - Xonalarda qalinligi 60 mm va kengligi 1,0 m MDF materialidan tayyorlangan, - Hojatxonalarda MDF yopiq (gluxoy); - Arxiv, server xonasi, elektr uskunolari xonasi - o'tga chidamli materialdan eshiklarni o'rnatish; <p>Shuningdek:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Eshik qulflari zamonaviy, bardoshli va sifatli. - Tashqi vitrajlar alyumin profildan. - Favqulotda yong'in xavfsizligi eshiklar loyihalashda amaldagi yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq bo'lishi shart. <p>DERAZALAR.</p> <p>Derazalar, ichki tokchalari bilan ikki kamera oynali PVXdan tayyorlangan, shamollatish tizimi uchun derazalar ochgichlari murakkab mexanizmli yoki fortichkali;</p> <ul style="list-style-type: none"> - Ichki deraza tokchalari PVX dan, - Tashqi deraza tokchalari ruhlangan tunukadan; - Tashqi eshiklar o'z maqsadi bo'yicha izolyatsiyalangan bo'lishi lozim. <p>POLLAR.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Ma'muriyat xonalarida kimyoviy chidamli linolyum markasi. (pollari ko'pikli polistirol yoki penoplast bilan izolyatsiya qilinishi kerak); - yo'laklari, zal va zinaxonalar pollari "Keramogranit" plitka; - Hojatxonalar va tegishli xonalar pollari keramik plitka, - Hojatxonalarda xonaning chekka burchagida nishab bilan trap o'rnatishni inobatga olish. ko'targichlar 2,0 sm. - Kirish zinalari maydonchasi - ustki qismi qum bilan ishlov berilgan granit.
--	--

13.2.	Konstruktiv yechimlar, yuk ko'taruvchi va to'suvchi konstruksiyalar materiallariga qo'yiladigan asosiy talablar	<p>- Loyihalash va konstruktiv yechimlarda zamonaviy loyihalash va qurilish tajribasini hisobga olinishi kerak.</p> <p>-Barcha qurilish materiallari mavjud standartlar va texnik shartlarga mos kelishi va ekologik toza materiallardan tayyorlangan bo'lishi kerak. -Loyihani ishlab chiqishda qurilish materiallariga minimal ta'simi hisobga olgan holda texnologik yechimlarni qo'llash kerak.</p> <p>- Tanlashda me'moriy jihatdan ma'qul, texnologik va energiya tejaydigan zamonaviy dizayn va texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratish kerak.</p> <p>- Loyiha qarorlarini amalga oshirishda mahalliy ishlab chiqarishning muqobil energiya manbalaridan foydalanish kerak.</p> <p>-Binolar konstruksiyalarini favqulodda vaziyatlarda, shu jumladan yong'in va zilzilalarda zarar yetishi buzilib ketish holatlari himoyasini ta'minlashni ko'zdatutish shart.</p> <p>Loyihada quyidagilar ko'zda tutilishi kerak:</p> <p>- Poydevorlar - quyma temir-beton plita;</p> <p>- Konstruktiv sxema - binoning konstruktiv tuzilishi yuk qabul qiluvchi pishiq g'isht bilan to'ldirilgan karkasli;</p>
14.	Muhandislik va texnologik jihozlar, muhandislik tarmoqlari bilan ta'minlashni loyihalashga qo'yiladigan asosiy talablar	<p>- Rigellar - 400x400 mm o'lchamli quyma temirbeton, beton sinfi KL B25,</p> <p>- Orayopma va tomyopmalar t=220 mm bo'lgan yumaloq g'ovakli yig'ma temirbeton plita,</p> <p>- Oraliq yopmalar - tayyor g'ovakli temir-beton plitalar,</p> <p>- Zinapoya - quyma temir-beton,</p> <p>- Oraliq devorlar - xonalarda "KNAUF" tipidagi metall karkasli o'tga va suvga chidamli gipsokartonli (ikkala tomondan ikki qavatli gipsokarton), texnik xonalar - pishiq g'isht, qalinligi 120mm, 250 mm,</p> <p>- San.uzel - "KNAUF" tipidagi metall karkasli ovoz o'tkazmaydigan gipsokartonli (ikkala tomondan ikki qavatli gipsokarton),</p> <p>- Tomyopmasi - yog'och karkasli, qalinligi kamida 0,5 mm bo'lgan bo'yalgan gofrotunuka (profnastil) bilan qoplangan shamollatiladigan,</p> <p>- Tomning issiqlik izolyatsiyasi - qalinligi issiqlik texnikasini hisoblash asosida kengaytirilgan polistirol yoki yong'in-kvarts qumidagi shisha tolali plitalar,</p> <p>- Balandligi h=1,2 m bo'lgan metall zinapoyalar panjaralari (h = 90,0 sm va 120 sm balandlikdagi gorizontol to'siqlar),</p> <p>- Yomg'ir suv quvuri (vodostok) - tashqi tashkil etilgan yomg'ir suv lotoklari va suv quvuri polimer qoplamali quvurdan. Yomg'ir suv quvurlarini mahalliy irrigatsiya tizimlariga yo'naltiriladi.</p> <p>- Ta'minot tarmoqlari uchun loyihaviy yechimlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy ilg'or texnologiyalari va uskunalaridan -foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.</p> <p>Loyihada quyidagilar ko'zda tutilishi kerak:</p> <p>Elektr tizimi:</p>

	<p>- elektr ta'minotining ishonchlilik darajasi bo'yicha, - II toifa, - energiya tejash chora-tadbirlar, - binoning elektr yoritish tizimini loyihalashtirishda KMK 2.01.05-98 va KMK 2.04.17-98, shuningdek elektr inshootlarining amaldagi qoidalariga (PUE) muvofiq 3 tarmoqli mis simdan foydalangan holda loyihalash, favqulodda yoritishni ta'minlash. "Zazemlemya" va "zanulenieni" ko'zda tutish. Elektr energiyasini hisobga olish uchun elektr energiyasini nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini (ASKUE) ko'zda tutish.</p> <p>- Yoqish va o'chirish uskunasi (viklyuchatel)ni pol satxidan 0,90 m. rozetkani 0,40 m balandlikda o'rnatish. - 60x60 sm o'lchamdagi (LED) yoritgich o'matish.</p> <p>Isitish va shamollatish: Binoni isitish tizimini loyihalashtirishda o'zining modulli qozonxonasidan foydalanish. Nasos o'matilishi bilan bitta quvurli tizim. Quvur ichidagi suvning sovishini oldini olish uchun quvurlarni issiqlik izolatsiyasini ta'minlash. Quvurlar devor ostida (kanallarida) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak. Radiatorlar-bimetalik. Uskunalar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqaruvchilari "Buyurtmachi" bilan kelishilgan bo'lishi kerak. Xonadagi havo haroratini hisobini amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq belgilash lozim. Ochilish oynalari bo'lgan tabiiy shamollatish, toza havo bilan ta'minlovchi va xona havosini so'ruvchi uskunalar o'matish kerak. Loyihalashda KMK 2.01.18-2000 * ga energiya iste'mol qilishning yangi standartlarini hisobga olgan holda KMK 2.04.05-97 va binolami loyihalash qo'llanmasining talablariga rioya qiling.</p> <p>Suv ta'minoti va oqava suv tarmoqlari: Suv ta'minoti KMK 2.04.01-98 va KMK 2.04.0297 bo'yicha bajarilishi kerak.</p> <p>1. Ichki sovuq suv ta'minoti polipropilen (PP) asosidagi quvurlardan iborat bo'lishi kerak. Ichimlik suvi ta'minotining magistral quvurlarini shaxtalarda yotqizish kerak. Sovuq suv iste'molchilariga quvur liniyalari va chiqish joylarini yotqizish devor ostida (kanallarida) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak. Kirish joyida sovuq suv iste'moli hisoblagichini inobatga olish kerak.</p> <p>2. Ichki issiq suv ta'minoti tizimi polipropilen (PP) asosidagi quvurlardan tayyorlanishi kerak. Ichki ichimlik suvi ta'minotining magistral quvurlarini yotqizish shaxtalarda amalga oshirilishi kerak. Issiq suv iste'molchilariga quvur liniyalari va chiqish joylarini yotqizish devor ostida (kanallarida) yashiringan holda</p>
--	---


	<p>amalgam oshirilishi kerak. Quvur ichidagi suvning sovishini oldini olish uchun quvurlarni issiqlik izolatsiyasini ta'minlash.</p> <p>3. Ichki suv ta'minoti va ichimlik suvi ta'minotini yong'inga qarshi suv ta'minoti bilan ta'minlash. Agar tashqi birlashtirilgan kommunal va ichimlik suvi ta'minotidagi bosim yong'inni o'chirish ehtiyojlari uchun yetarli bo'lmasa, u holda yong'inga qarshi nasos stantsiyasini ta'minlash. Yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimi GOST 10704-91 bo'yicha po'lat quvurlardan yasalgan. Yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimining asosiy quvurlarini shahtalarda yotqizish. Binolarda quvurlari yotqizish. Oraliq yopmalar ostiga va osma shift orqasida amalgam oshirilishi kerak.</p> <p>4. Suv va oqova suv tarmoqlari QMQ 2.04.01 -98 va QMQ 2.04.03-97 ga muvofiq amalgam oshirilishi kerak. Ichki kanalizatsiya tarmoqlari yuqori quvvat va gigienik xususiyatlarga ega bo'lgan PVX quvurlaridan tayyorlanishi kerak. Oqova suv tarmoqlari quvurlarini shahtalarga yotqizish. Oqova suv tarmoqlari tarmoqlarini tashqi Oqova suv tarmog'iga ulash. Tiqilib qolishi mumkin bo'lgan joylarda kanalizatsiya quvurlarini qayta ko'rib chiqish va tozalash imkoniyatini ta'minlash.</p> <p>5. Hojatxonalar va maxsus kerakli xonalarda nishab bilan trap o'matishni inobatga olish, hojat uskunasi(yHHTa3) pol sathidan balandroq o'matishni inobatga olish, yuvinish moslamalarini o'matishda yaxlit pol sathidan chiquvchi uskunalardan foydalanish.</p> <p>Yong'ir suvlari quvurlarini binoning tashqi devorlari bo'ylab yotqizish va ulaming ranglarini tanlashda bino fasad qismi rangiga uyg'unlashgan holda bajarish lozim. Yong'ir suv quvurlarini qalinligi kamida 0,5 mm va diametri kamida 100 mm bo'lgan ruhlangan tunukadan (оцинкованный) yasalgan quvurlardan tayyorlanishi kerak.</p> <p>Majmuaviy umumiy xavfsizlik tizimlari: Amaldagi me'yor va talablarga muvofiq loyihada binoning yong'in habarlash va ogohlantirish tizimi, videokuzatuv bilan jihozlanishi nazarda tutilishi kerak.</p> <p>Yong'in o'chirish tizimi: Loyihalashtirishda amaldagi me'yorlar "Yong'indan himoya qilish tizimlari. Avtomatik yong'indan habarlash va yong'in o'chirish moslamalari"ga muvofiq SHNK 2.04.09-07" Bino va inshootlar yong'in avtomatikasi" talablari asosida amalgam oshirish.</p> <p>Kuchsiz tok tizimlari:</p>
--	--

		"Internet" tarmoqlariga ulash, yong'in xavfsizlik va xabarlash tizimi. Yong'in xavfsizligi talablari SHNK 2.01-04 bo'yicha bajarilishi kerak.
15.	Energiya samaradorligi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.06.2011 yildagi 161-sonli qaroriga muvofiq ob'ektning energiya samaradorligini oshirish bo'yicha zamonaviy innovatsion yechimlarni taqdim etish. Lampalarni energiyani tejaydigan lampalar, zamonaviy issiqlik izolyatsiya materiallari va ikkita kamerali oynali PVX derazalardan foydalanishni ta'minlash.
16.	Bino maydonini obodonlashtirish	Binolardan holi bo'lgan va obodonlashtirish uchun mo'ljallangan poliklinika maydonini obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish loyahasini amalga oshirish. Hududda obodonlashtirish ishlarining quyidagi turlarini ta'minlang: - Dam olish joylari, - Asfalt yoki beton qoplamali transport yo'llari, shu jumladan yong'in xavfsizlik texnikasi uchun, - Piyodalar uchun beton yo'laklar, Hududni tashqi yoritilish tizimi tejamkor chiroqlar bilan yoritilishi lozim.
17.	Texnologik yechimlar va uskunalar	Barcha xonalar funksiyasi va vazifasidan kelib chiqqan xolda tibbiy uskunalari bilan jixozlansin. Texnologik uskunalar zamonaviy va energiya tejamkor jixozlar ko'zda tutilsin. Barcha tibbiy uskunalar mavjud normativlar asosida СанПиН № 0194-06.
18.	Atrof-muhitni muhofaza qilish	Atrof-muhitga ta'siri baholash (ZVOS) loyahasini ishlab chiqish.
19.	Harakati cheklangan shaxslar uchun yashash sharoitlarini ta'minlash bo'yicha talablar	SHNK 2.07.02-07 ni hisobga olgan holda, harakatlanish imkoniyati cheklangan shaxslar nogironlar va boshqalar aholi guruhlari uchun qulay kirishini ta'minlash choralarini ko'rish, nogironlar va harakatlanishi cheklangan shaxslarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda loyihalash.
20.	Vazirliklar va idoralar bilan muvofiqlashtirish zarurligi to'g'risida ko'rsatma	Loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish.
21.	Namoyish materiallarini tayyorlash	Binoning bosh rejasi va fasadi shuningdek ichki davolash xonalari, yo'laklar, qabulxona, sanitariya bo'limi bezak dizayni albomini zamonaviy dizayn elementlaridan foydalangan holda ishlab chiqish.
22.	Loyihalash ishlarini bajarishga qo'yiladigan talablar	- Loyiha hujjatlari bo'limlari, tarkibi va ularning mazmuni amaldagi me'yoriy-huquqiy bazaga muvofiq bo'lishi kerak, - Smeta hujjatlarini tasdiqlangan standartlarga muvofiq rejalashtirilgan qurilish muddatiga to'g'ri keidigan narxlar bo'yicha amaldagi narxlar tartibiga muvofiq ishlab chiqish, - Ish hujjatlari 1 nusxada ekspertizaga topshirish uchun Buyurtmachiga beriladi.

		<p>Loyihachi tashkilot ekspertiza davomida dizayn yechimlarini himoya qilishni ta'minlaydi.</p> <p>Loyiha smeta hujjatlari SHNQ 1,03.01-2016 "Korxonalar, binolar va inshootlarni kapital qurish uchun loyiha-smeta hujjatlarini tarkibi, ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va tasdiqlash"ga muvofiq buyurtmachiga 3 nusxada va elektron shaklda beriladi. Buyurtmachi tasdiqlovchi tashkilotlarning xizmatlari va ekspertizasi uchun haq to'laydi.</p>
23.	Qurilishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish (POS)	SHNQ 1.13.08-06 va boshqa turdagi normativ hujjatlar talablariga asosan bajarilsin.
24.	Qo'shimcha talablar	«Binolar va inshootlar kapital qurilishi loyiha hujjatlari tarkibi, ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi» SHNQ 3.01.01-03 ga asosan to'liq hajmda ishlab chiqilsin. Ishchi loyihasi 3 nusxada va elektron variantda (PDF), smeta hujjati 1 nusxada kitob va elektron (disk) shaklda amaldagi standartlar asosida topshirish.

Buyurtmachi:
Toshkent viloyat hokimiyati
"Yagona buyurtmachi xizmati"
I.K. vakili

M.O'.



(F.I.SH. va imzo)